INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING TARKIBIY TAHLILI VA ULARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Zokirova Munisa Jamoliddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o’qituvchisi
munisahusniddinova9@gmail.com
Mirpo’latova Dilnoza Murod qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Statistika (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) RST-77/23 yo’nalishi
Gmail: dilmir070906@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti daromadlarining shakllanish mexanizmlari, ularning tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiy o‘sish bilan o‘zaro bog‘liqligini tizimli va kompleks yondashuv asosida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida davlat budjeti daromadlarining asosiy manbalari — to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs va mulk soliqlari hamda boshqa daromad tushumlari o‘zaro nisbatda o‘rganilib, ularning fiskal barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ish davomida 2020–2025 yillar kesimidagi statistik ma’lumotlar asosida davlat budjeti daromadlarining dinamikasi, tarkibiy o‘zgarishlari hamda ularning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilindi. Xususan, 2024-yilga kelib davlat budjeti daromadlari sezilarli darajada oshib, 274,423 trillion so‘mni tashkil etgani aniqlanib, bu holat mamlakatda iqtisodiy faollikning ortib borayotgani, soliq ma’murchiligi samaradorligining oshgani hamda iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalari bilan izohlandi. 2025-yilga hali yillik ma’lumot mavjud emas, ammo 2025-yilning 1-chorak ijrosi bo’yicha malumot bor va u 63936,8 trillion summani tashkil qiladi. 2024-yil bilan solishtirganda esa, 2024-yil 1-chorak ijroda 50537,7 trillion summani tashkil qilgan va bu aniqki 2025-yilda 1-choragida tushum ko’proq. Tadqiqot natijalari davlat budjeti daromadlari va yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlari o‘rtasida bevosita ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi, ya’ni iqtisodiy o‘sish daromadlarni oshirsa, o‘z navbatida oshgan daromadlar davlat xarajatlari orqali iqtisodiy rivojlanishni yanada rag‘batlantiradi. Shuningdek, tadqiqot doirasida davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tuzilishi chuqur o‘rganilib, unda soliq tushumlarining ustunligi, xususan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlarning asosiy ulushni egallashi aniqlangan. Shu bilan birga, resurs va mulk soliqlari hamda boshqa daromad manbalarining nisbatan past ulushi mavjudligi daromadlar diversifikatsiyasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Mazkur holat fiskal tizimning barqarorligini oshirish uchun daromad manbalarini kengaytirish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotda xorijiy davlatlar tajribasi ham keng ko‘rib chiqilib, Germaniya, AQSh va Turkiya kabi mamlakatlarda davlat budjeti daromadlarining shakllanish modeli tahlil qilindi. Ushbu mamlakatlar tajribasi daromadlarni diversifikatsiya qilish, fiskal markazlashuv va decentralizatsiya o‘rtasida muvozanatni ta’minlash hamda soliq siyosatini iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida qo‘llash muhim ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosida O‘zbekiston sharoitida davlat budjeti daromadlarini oshirish va ularning barqarorligini ta’minlash uchun bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Xususan, soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali soliq ma’murchiligini takomillashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda nosoliq daromad manbalarini rivojlantirish zarurligi asoslab berildi. Umuman olganda, mazkur ilmiy tadqiqot davlat budjeti daromadlarining shakllanish jarayonini chuqur tahlil qilish orqali mamlakat fiskal siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy xulosalarni o‘z ichiga oladi.


Davlat budjeti zamonaviy iqtisodiyotda davlatning eng muhim moliyaviy instrumentlaridan biri bo‘lib, u orqali milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari moliyalashtiriladi, ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi,1 hamda iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Davlat budjeti daromadlari esa ushbu tizimning asosiy tayanchi sifatida iqtisodiyotda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatning muayyan qismini davlat ixtiyoriga qayta taqsimlash orqali shakllanadi. Shu bois davlat budjeti daromadlarining tarkibi, hajmi va dinamikasi mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Iqtisodiy nazariyada davlat budjeti daromadlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik keng yoritilgan bo‘lib, fiskal siyosat vositalari orqali iqtisodiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatish mumkinligi asoslab berilgan. Xususan, davlat tomonidan yig‘iladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hajmining ortishi davlat xarajatlarini kengaytirish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida infratuzilma rivojlanishi, bandlikning oshishi va iqtisodiy faollikning kuchayishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davlat budjeti daromadlarini oshirish va ularning tarkibini optimallashtirishga qaratilgan.2 Soliq tizimini liberallashtirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali davlat budjeti daromadlarining barqaror o‘sishi ta’minlanmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli tarmoqlari rivojlanish darajasining turlicha ekanligi davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, davlat budjeti daromadlarining tarkibini chuqur tahlil qilish va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlash mamlakatda samarali fiskal siyosat yuritish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy o‘sish bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan iborat. Endi biz ushbu maqolaning metodologiyasiga to’xtaladigan bo’lsak, mazkur tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv, IMRAD uslubiyoti qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini zamonaviy fiskal siyosat konsepsiyalari, xususan davlat budjeti daromadlarining iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini yorituvchi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu yondashuv orqali davlat budjeti daromadlari nafaqat moliyaviy ko‘rsatkich sifatida, balki iqtisodiy tizimning faoliyatini belgilovchi muhim omil sifatida o‘rganildi. Tadqiqotning empirik bazasini 2020–2025 yillar kesimida shakllangan rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlar asosida davlat budjeti daromadlarining hajmi, tarkibi va o‘zgarish dinamikasi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida davlat budjeti daromadlari bir necha asosiy guruhlarga ajratilib o‘rganildi, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs va mulk soliqlari hamda boshqa daromadlar alohida-alohida ko‘rib chiqildi. Bu esa daromadlar tarkibidagi o‘zgarishlarni aniqroq aniqlash va ularning iqtisodiy mazmunini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Metodologik jihatdan tadqiqotda tizimli tahlil usuli muhim o‘rin egalladi. Ushbu usul yordamida davlat budjeti daromadlari tizimi yaxlit holda o‘rganilib, uning tarkibiy elementlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Shu bilan birga, statistik solishtirish usuli orqali turli yillar kesimidagi ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanib, davlat budjeti daromadlarining o‘sish tendensiyalari aniqlab berildi. Mazkur yondashuv davlat budjeti daromadlarining vaqt davomida qanday o‘zgarib borayotganini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan

1 Musgrave, 1959; Oates, 1972

2 O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, 2021


tashqari, iqtisodiy umumlashtirish usuli orqali olingan natijalar tizimlashtirilib, ular asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Taqqoslama tahlil usuli yordamida esa O‘zbekiston Respublikasidagi davlat budjeti daromadlari tarkibi xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyoslandi. Bu esa milliy fiskal siyosatning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash imkonini berdi. Ushbu yondashuv orqali davlat budjeti daromadlarining oshishi iqtisodiy o‘sishga qanday ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek iqtisodiy o‘sish darajasi daromadlar hajmiga qanday ta’sir qilishi izchil ravishda o‘rganildi.. Bu esa olingan natijalarning ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta’minlaydi. Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologik yondashuv davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tahlilini chuqur va har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti daromadlari izchil va barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Ushbu davr mobaynida davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmi sezilarli darajada ortib, 2024-yilga kelib 274,423 trillion so‘mni tashkil etgani aniqlangan (2025-yilga davlat budjeti daromadi bo’yicha hali umumiy yillik daromad hajmi summasi elon qilinmagani bois 2024-yilgacha bo’lgan ma’lumotlarni tahlil qilamiz).3



Bu ko‘rsatkich mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, soliq siyosatining liberallashuvi hamda iqtisodiy faollikning ortib borishi natijasida yuzaga kelgan ijobiy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Mazkur 1-rasmda 2020–2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti daromadlari dinamikasi aks ettirilgan bo‘lib, unda barqaror o‘sish tendensiyasi yaqqol kuzatiladi. Xususan, 2020-yilda davlat budjeti daromadlari 132 938,0 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 164 799,4 trillion so‘mga yetgan. Bu davrda daromadlarning sezilarli oshishi iqtisodiy faollikning tiklanishi, soliq tushumlarining kengayishi hamda fiskal siyosatning kuchayishi bilan izohlanadi. 2022-yilda esa davlat budjeti daromadlari 201 863,7 trillion so‘mga yetib, o‘sish sur’atlari yanada jadallashganini ko‘rsatadi. Bu davrda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda ichki bozor faolligining kuchayishi budjet tushumlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. 2023-yilda daromadlar 231 721,3 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu o‘sish avvalgi yillarga nisbatan nisbatan barqaror, ammo biroz sekinlashgan sur’atda davom etganini bildiradi. Bunga ayrim makroiqtisodiy omillar, jumladan global iqtisodiy noaniqliklar va inflyatsion bosimlar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. 2024-yilda esa davlat budjeti daromadlari yana sezilarli oshib, 274 423 trillion so‘mga yetgan. Bu esa iqtisodiy islohotlarning

3Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, 2025

samarasi, soliq ma'murchiligining takomillashuvi hamda investitsion faollikning oshishi bilan izohlanadi. Umuman olganda, ushbu davr oralig'ida davlat budjeti daromadlari deyarli ikki baravar oshgan bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror fiskal o'sish tendensiyasi shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur dinamika davlatning ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashini anglatadi. Davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tahlili ularning asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etishini ko'rsatadi. Xususan, Bevosita soliqlar umumiy daromadlarning muhim qismini egallab, 2024-yilda yillik 90,833 trillion so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich aholining daromadlari va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan foydaning ortib borayotganini ifodalaydi. Bevosita soliqlar iqtisodiy tizimning real sektori bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning o'sishi iqtisodiy rivojlanish darajasining oshganidan dalolat beradi. Bilvosita soliqlar esa davlat budjeti daromadlarining yana bir muhim qismini tashkil etib, 88,341 trillion so'mga teng bo'lgan. Ushbu soliqlar iste'mol jarayonlariga bog'liq bo'lib, ichki bozor faolligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bilvosita soliqlarning yuqori ulushi aholi iste'mol darajasining oshganini va iqtisodiyotda pul aylanishining faollashganini ko'rsatadi. Resurs va mulk soliqlari 36,363 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, ular iqtisodiyotda mavjud tabiiy resurslar va mulkdan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Ushbu daromad manbasining nisbatan barqarorligi davlat budjeti uchun qo'shimcha moliyaviy kafolat vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, boshqa daromadlar 58,886 trillion so'mni tashkil etib, ular tarkibiga davlat mulkidan tushumlar, bojxona to'lovlari va boshqa nosoliq daromadlar kiradi. Quyida 2-rasmda biz davlat budjetining tarkibini taqsimlanishini ko'rishimiz mumkin. Quyida 2-rasmda biz davlat budjetining tarkibini taqsimlanishini ko'rishimiz mumkin.



Mazkur tarkibiy tuzilma davlat budjeti daromadlarining nisbatan diversifikatsiyalashganligini ko'rsatsa-da, soliq tushumlarining ustunligi fiskal tizimda hali ham asosiy yuk soliq tizimiga tushayotganini anglatadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muayyan xavflarni yuzaga keltirishi mumkin, chunki iqtisodiy faollik pasaygan holatlarda soliq tushumlari ham qisqaradi. Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatdiki, davlat budjeti daromadlarining o'sish sur'atlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari bilan deyarli bir xil yo'nalishda harakatlanmoqda. Bu esa ular o'rtasida mustahkam ijobiy bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Ya'ni iqtisodiy o'sish darajasi oshgani sari davlat budjeti daromadlari ham ortadi, bu esa davlat xarajatlarini kengaytirish imkonini yaratadi, Olingan natijalar chuqurroq tahlil qilinganda, davlat budjeti daromadlarining o'sishi faqat statistik ko'rsatkich

emas, balki mamlakat iqtisodiy tizimida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning bevosita natijasi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning yuqori ulushni egallashi iqtisodiyotda rasmiy daromadlar oshib borayotganini, korxonalar foydadorligi yaxshilanayotganini va mehnat bozori faol rivojlanayotganini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida davlat budjeti daromadlarining barqaror va prognoz qilinadigan manbalarga asoslanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bilvosita soliqlarning sezilarli ulushi ichki iste’mol bozorining kengayib borayotganini ifodalaydi. Iste’mol darajasining oshishi iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan4 biri hisoblanib, u ishlab chiqarish hajmining ortishiga, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishiga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi. Natijada davlat budjeti daromadlari ham ko‘payadi Bu jarayon fiskal multiplikator effekti orqali iqtisodiyotga qo‘shimcha impuls beradi. Resurs va mulk soliqlarining nisbatan barqaror ulushi esa tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi va mulk munosabatlarining rivojlanganlik darajasini aks ettiradi. Biroq ushbu daromad manbalarining ulushi boshqa soliqlarga nisbatan pastroq ekanligi iqtisodiyotda hali to‘liq foydalanilmayotgan salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, yer va mulkdan foydalanish samaradorligini oshirish davlat budjeti daromadlarini ko‘paytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi mumkin. Davlat budjeti daromadlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zaro mustahkam ijobiy aloqaga ega. Ya’ni iqtisodiy o‘sish sur’atlari oshgani sari budjet daromadlari ham ortib boradi, bu esa davlatga qo‘shimcha investitsiya va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan samarali fiskal siyosat ham iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, bu jarayon ikki tomonlama ta’sirga ega bo‘lib, o‘zaro mustahkamlovchi xarakterga ega. Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish ushbu jarayonlarni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Masalan, Germaniyada fiskal federalizm tizimi orqali daromadlar turli darajalar o‘rtasida muvozanatli taqsimlanadi va bu hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi. AQShda esa mahalliy va federal budjetlar o‘rtasida aniq vakolatlar mavjud bo‘lib, daromad manbalari diversifikatsiyalashganligi sababli fiskal barqarorlik yuqori darajada ta’minlangan. Turkiyada esa bilvosita soliqlarning ustunligi iste’molga asoslangan fiskal modelni ifodalab, qisqa muddatda daromadlarni oshirishga xizmat qiladi, biroq uzoq muddatda iqtisodiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida esa davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliq tushumlariga tayanayotganligi fiskal tizimning markazlashganligini ko‘rsatadi. Bu holat bir tomondan barqarorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan iqtisodiy shoklarga nisbatan sezuvchanlikni oshirishi mumkin. Shu sababli daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, xususan nosoliq tushumlarni oshirish, davlat aktivlaridan samarali foydalanish va xususiy sektorni rivojlantirish orqali budjet daromadlarini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar davlat budjeti daromadlari tarkibining iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bois fiskal siyosatni takomillashtirish orqali nafaqat budjet daromadlarini oshirish, balki iqtisodiy o‘sishni yanada rag‘batlantirish mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti daromadlari so‘nggi yillarda izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijasini aks ettiradi. Davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tahlili ularning asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etishini va bu tushumlar iqtisodiy faollik darajasi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar ulushining yuqoriligi iqtisodiyotda daromadlar oshib borayotganini,

4 harakatga keltiruvchi omil

bilvosita soliqlar ulushining sezilarli darajada bo‘lishi esa iste’mol bozorining kengayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari davlat budjeti daromadlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida o‘zaro mustahkam bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu bog‘liqlik shuni anglatadiki, iqtisodiy o‘sish budjet daromadlarini oshirsa, o‘z navbatida oshgan daromadlar davlat investitsiyalarini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishni yanada rag‘batlantiradi. Demak, davlat budjeti daromadlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida o‘zaro kuchaytiruvchi mexanizm mavjud.

Biroq, mavjud tizimda ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Xususan, davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliq tushumlariga bog‘liq bo‘lib qolayotgani daromad manbalarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligini5 ko‘rsatadi. Bu esa iqtisodiy beqarorlik sharoitida fiskal tizim barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli kelgusida nosoliq daromadlarni oshirish, davlat mulkidan samarali foydalanish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni alohida ta’kidlash mumkin. Avvalo, soliq bazasini kengaytirish va soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish orqali budjet daromadlarini barqaror oshirish zarur. Ikkinchidan, iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish orqali soliq tushumlarining to‘liqligini ta’minlash mumkin. Uchinchidan, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va fiskal tizimni muvozanatli rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, davlat budjeti daromadlarining samarali shakllanishi mamlakat iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy rivojlanishi va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va ularni ilmiy asosda takomillashtirish kelgusida yuqori iqtisodiy natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Norma, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 1993-yil 2-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti va yillik budjet hisobotlari (2020–2025). – https://www.mf.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari (2020–2025). – https://www.stat.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotlar (2020–2025). – https://www.lex.uz
7. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Monitor Reports (2023–2025). – https://www.imf.org
8. World Bank. Uzbekistan Economic Update Reports (2023–2025). – https://www.worldbank.org
9. Musgrave R. A. “The Theory of Public Finance”. – McGraw-Hill, 1959.
10. Oates W. E. “Fiscal Federalism”. – Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
11. Karimov A.M. “Davlat moliyasi”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

5 yetarli darajada turli yo‘nalishlarga bo‘linmagan,

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

12. To‘xtayev M.X., Rahimov M.M. “Budjet tizimi va budjet siyosati”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
13. Murodov A. “Hududiy rivojlanishda budjet siyosatining o‘rni”. // Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2023.
14. OECD. Revenue Statistics Report (2024). – https://www.oecd.org